



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	



O‘ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Bobonarova Kamola

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit yo‘nalishi 3-bosqich doktoranti

ORCID: 0009-0008-7480-1501

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik xulosalarining ishonchliligini ta‘minlash hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining audit natijalariga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash va ularni risklarni baholash mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, hujjatlar tahlili, mantiqiy umumlashtirish va risklarni baholash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ichki sifat nazorati faqat auditorlik xulosasi tayyorlash bosqichida emas, balki mijozni qabul qilish, auditni rejalashtirish, auditorlik dalillarini yig‘ish, ishchi hujjatlarni tekshirish va monitoring jarayonlarida ham doimiy amal qilishi zarur. Maqolada auditorlik tashkilotlarida mijoz riskini baholash varaqalarini joriy etish, audit rejasini risk darajasiga qarab shakllantirish, auditorlik dalillarini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda yakuniy xulosa oldidan ichki sifat tekshiruvini kuchaytirish bo‘yicha takliflar berilgan. Xulosa sifatida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, xatoliklar ehtimolini kamaytirish va auditorlik tashkilotlarining professional javobgarligini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: auditorlik tashkiloti, ichki sifat nazorati, ichki standartlar, riskka yo‘naltirilgan yondashuv, audit sifati, auditorlik xulosasi, moliyaviy hisobot, risklarni baholash, monitoring, auditorlik dalillari.

Abstract. This article analyzes the issues of improving internal quality control standards in audit organizations of Uzbekistan based on a risk-oriented approach. The relevance of the topic is explained by the need to improve the quality of audit services, ensure the reliability of audit opinions, and strengthen the confidence of financial statement users in audit results. The purpose of the study is to identify directions for improving internal quality control standards in audit organizations and integrate them with risk assessment mechanisms. The study used methods of system analysis, comparative analysis, document analysis, logical generalization, and risk assessment. The results of the study showed that internal quality control should operate not only at the stage of preparing the audit opinion, but also continuously in the processes of client acceptance, audit planning, collection of audit evidence, review of working papers, and monitoring. The article proposes recommendations for introducing client risk assessment sheets, developing audit plans depending on risk levels, establishing criteria for evaluating audit evidence, and strengthening internal quality reviews before issuing the final opinion. As a conclusion, it is substantiated that improving internal quality control standards based on a risk-oriented approach contributes to improving the quality of audit services, reducing the probability of errors, and strengthening the professional responsibility of audit organizations.

Key words: audit organization, internal quality control, internal standards, risk-oriented approach, audit quality, audit opinion, financial statements, risk assessment, monitoring, audit evidence.



Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы совершенствования стандартов внутреннего контроля качества в аудиторских организациях Узбекистана на основе риск-ориентированного подхода. Актуальность темы обусловлена необходимостью повышения качества аудиторских услуг, обеспечения достоверности аудиторских заключений, а также укрепления доверия пользователей финансовой отчетности к результатам аудита. Цель исследования заключается в определении направлений совершенствования стандартов внутреннего контроля качества в аудиторских организациях и их интеграции с механизмами оценки рисков. В исследовании использованы методы системного анализа, сравнительного анализа, анализа документов, логического обобщения и оценки рисков. Результаты исследования показали, что внутренний контроль качества должен осуществляться не только на этапе подготовки аудиторского заключения, но и постоянно применяться в процессах принятия клиента, планирования аудита, сбора аудиторских доказательств, проверки рабочих документов и мониторинга. В статье предложены рекомендации по внедрению листов оценки клиентских рисков, формированию плана аудита в зависимости от уровня риска, разработке критериев оценки аудиторских доказательств, а также усилению внутренней проверки качества перед вынесением окончательного заключения. В качестве вывода обосновано, что совершенствование стандартов внутреннего контроля качества на основе риск-ориентированного подхода способствует повышению качества аудиторских услуг, снижению вероятности ошибок и усилению профессиональной ответственности аудиторских организаций.

Ключевые слова: аудиторская организация, внутренний контроль качества, внутренние стандарты, риск-ориентированный подход, качество аудита, аудиторское заключение, финансовая отчетность, оценка рисков, мониторинг, аудиторские доказательства.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati to'g'risidagi moliyaviy axborotlarning ishonchligi investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, korxonalarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablar asosida yuritilishi, kapital bozorining rivojlanishi, xususi sektor ulushining ortishi hamda investitsion muhitning yaxshilanishi auditorlik xizmatlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati nafaqat alohida korxonalar faoliyatini baholashda, balki butun iqtisodiyotda moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik va ishonch muhitini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha so'nggi yillarda muhim institutsional islohotlar amalga oshirilmog'da. Xususan, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunda auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq amalga oshirilishi va auditorlik xizmatlarini ko'rsatish chog'ida majburiy shart ekanligi belgilangan [1]. Bu esa auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini shakllantirish, ularni amaliyotga moslashtirish va muntazam takomillashtirib borish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, amaliyotda ko'plab auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati tizimi ko'proq rasmiy hujjatlar, umumiy tartib-qoidalar va tekshiruv varaqalari bilan cheklanib qolishi mumkin. Bunday yondashuv audit jarayonida yuzaga keladigan real risklarni oldindan aniqlash, ularga mos nazorat choralarini belgilash va audit sifati uchun javobgarlikni aniq taqsimlash imkonini har doim ham bermaydi. Natijada auditorlik xulosalarining ishonchligi, audit dalillarining yetariligi, mustaqillik talablariga rioya etilishi hamda mijoz bilan bog'liq risklarni baholash masalalarida muammolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Xalqaro amaliyotda auditorlik tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimi tobora ko'proq riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilmog'da. International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan sifatni boshqarish standartlari auditorlik firmalaridan sifat menejmenti tizimini tashkil etishda tashkilotning o'z xususiyatlari, bajariladigan topshiriqlar turi, mijozlar tarkibi va mavjud risklarni hisobga olishni talab qiladi [2]. Demak, ichki sifat nazorati faqat yakuniy tekshiruv bosqichida xatolarni aniqlash vositasi emas, balki audit jarayonining barcha bosqichlarida risklarni boshqarish, oldini olish va tuzatish mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish audit sifati, auditorlik xulosalarining ishonchligi va auditorlik bozoriga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati tizimining amaldagi holati, uni tashkil etishda uchraydigan asosiy muammolar hamda riskka asoslangan ichki standartlarni ishlab chiqishning metodik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, auditorlik tashkilotlarida mijozni qabul qilish, topshiriqni rejalashtirish, auditorlar ishini nazorat qilish, audit dalillarini baholash, yakuniy xulosa sifatini tekshirish va monitoring jarayonlarini risk darajasiga qarab tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqolaning maqsadi O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish yo'nalishlarini asoslash, mavjud muammolarni aniqlash hamda audit sifati va auditorlik xulosalarining ishonchligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirish masalasi xalqaro audit amaliyotida muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O. E. Lubenchenko, S. V. Shulha va M. D. Korinko tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda audit sifatini ta'minlash faqat yakuniy nazorat yoki auditorlik xulosasini tekshirish bilan cheklanmasligi, balki auditorlik firmasining umumiy sifat menejmenti tizimi bilan bog'liq holda qaralishi zarurligi asoslab beriladi. Mualliflar auditorlik tashkilotida sifatni boshqarish tizimi rahbariyat mas'uliyati, axloqiy talablar, mijoz bilan munosabatlarni davom ettirish, resurslardan foydalanish, topshiriqni bajarish, axborot almashinuvi, monitoring va risklarni baholash kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar [3]. Ushbu yondashuv O'zbekiston auditorlik tashkilotlari uchun ham dolzarb bo'lib, ichki sifat nazorati standartlarini oddiy ichki hujjatlar majmui sifatida emas, balki audit sifatini ta'minlovchi va risklarni oldindan boshqarishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

L. Lapiška tadqiqotida auditorlik firmasining sifat menejmenti tizimida risklarni baholash jarayoni alohida komponent sifatida tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, auditorlik tashkilotida sifat menejmenti tizimi faqat belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilishni emas, balki audit topshiriqlarini bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash, baholash va ularga nisbatan tegishli javob choralarini ishlab chiqishni ham qamrab olishi lozim. Bunday yondashuv auditorlik tashkilotida mas'uliyatni aniq taqsimlash, topshiriq sifatini nazorat qilish, audit dalillarining yetarliligi va ishonchligini baholash hamda yakuniy auditorlik xulosasi sifatini oshirish imkonini beradi [4]. Shu jihatdan O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini ishlab chiqishda risklarni baholash tartibi, javobgar shaxslar, nazorat bosqichlari va monitoring mexanizmlarini aniq belgilash zarur hisoblanadi.

N. N. K. Dung tomonidan olib borilgan tadqiqotda riskka asoslangan audit yondashuvi va audit sifati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Muallif audit sifatiga auditorlarning kasbiy malakasi, risklarni baholash darajasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish, mijoz faoliyatidagi xavf omillari va audit jarayonida resurslarni to'g'ri taqsimlash kabi omillar ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [5]. Ushbu ilmiy qarash maqola mavzusi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki riskka yo'naltirilgan yondashuv auditorlik tashkilotlaridan barcha mijozlarga bir xil umumiy tartibda yondashishni emas, balki har bir mijozning faoliyat sohasi, moliyaviy holati, ichki nazorat tizimi, hisob siyosati va xatolik yuzaga kelish ehtimoliga qarab audit amallarini moslashtirishni talab qiladi.

E. D. Kartika, A. Bahari va E. Luthan tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda riskka asoslangan yondashuvning mustaqil audit sifati bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda auditor salohiyati, mijoz riski, audit xarajatlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish va auditorlik tashkilotining raqobatbardoshligi audit sifatiga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi [6]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlari faqat audit jarayonini nazorat qilishga emas, balki auditorlar malakasini oshirish, mijoz risklarini baholash, ishchi hujjatlar sifatini tekshirish, audit dalillarini baholash va yakuniy xulosa sifatini monitoring qilishga ham xizmat qilishi kerak.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirishda riskka yo'naltirilgan yondashuv asosiy metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda audit sifati auditorlik firmasining ichki tartib-qoidalari, rahbariyat mas'uliyati, xodimlar malakasi, mijoz risklarini baholash, texnologik resurslardan foydalanish va monitoring tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Shu sababli O'zbekiston auditorlik tashkilotlari uchun ichki sifat nazorati standartlarini xalqaro sifat menejmenti talablari asosida takomillashtirish, ularda risk indikatorlari, nazorat bosqichlari, javobgar shaxslar va audit topshiriqlari bo'yicha sifat monitoringi tartiblarini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish masalasi nazariy, me'yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, hujjatlar tahlili, risklarni baholash, sabab-oqibat aloqadorligini aniqlash va ilmiy abstraksiyalash usullari tashkil etdi. Tizimli tahlil usuli orqali ichki sifat nazorati standartlari auditorlik tashkilotining alohida ichki hujjati sifatida emas, balki mijozni qabul qilish, audit topshiriqini rejalashtirish, risklarni aniqlash, auditorlar ishini nazorat qilish, ishchi hujjatlarni tekshirish, auditorlik dalillarini baholash va yakuniy xulosa sifatini monitoring qilish bilan bog'liq yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda hujjatlar tahlili usulidan foydalanilib, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro audit amaliyotida qo'llaniladigan sifat menejmenti yondashuvlari hamda risklarni boshqarish bo'yicha metodik tamoyillar o'rganildi. Risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro yondashuvlarda riskni aniqlash, tahlil qilish, baholash va unga javob choralarini ishlab chiqish uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida qaraladi [7].



Shu asosda maqolada auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlari ham faqat tekshiruv yakunida xatolarni aniqlash vositasi emas, balki audit jarayonining barcha bosqichlarida ehtimoliy xatoliklar va sifatga ta'sir qiluvchi omillarni oldindan aniqlashga qaratilgan mexanizm sifatida tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida qo'llanilayotgan ichki sifat nazorati yondashuvlari xalqaro amaliyotdagi riskka asoslangan sifat boshqaruvi talablari bilan solishtirildi. Bu orqali ichki standartlarning rasmiy xarakterda qolib ketishi, risk indikatorlarining yetarli darajada belgilanmagani, auditorlar javobgarligi va nazorat bosqichlarining aniq taqsimlanmagani, monitoring mexanizmlarining sustligi kabi muammolarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, sabab-oqibat tahlili orqali auditorlik xizmatlari sifatining pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar — mijoz riskining noto'g'ri baholanishi, auditorlik dalillarining yetarli emasligi, ishchi hujjatlarning to'liq rasmiylashtirilmagani, topshiriq rahbari nazoratining sustligi va yakuniy xulosa oldindan ichki tekshiruvning yetarli emasligi kabi holatlar o'rganildi.

Tadqiqotda riskka yo'naltirilgan baholash usuli asosiy metodlardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu yondashuvda auditorlik topshiriqlari mijoz faoliyati turi, moliyaviy hisobotlar murakkabligi, ichki nazorat tizimi holati, oldingi audit natijalari, xatolik yuzaga kelish ehtimoli va audit dalillarining ishonchlik darajasiga qarab past, o'rta va yuqori riskli guruhlariga ajratilishi nazarda tutildi. Sifat menejmenti tizimlarida jarayonlarni rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va doimiy takomillashtirib borish muhim tamoyil sifatida qaraladi [8]. Shu sababli maqolada auditorlik tashkilotlari ichki sifat nazorati standartlarini ham doimiy ravishda yangilab boriladigan, risk darajasiga qarab moslashtiriladigan va amaliy natijaga yo'naltirilgan boshqaruv vositasi sifatida takomillashtirish zarurligi asoslandi.

Mantiqiy umumlashtirish usuli orqali tadqiqot davomida aniqlangan muammolar umumlashtirilib, ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilandi. Unga ko'ra, auditorlik tashkilotlarida mijozni qabul qilish va davom ettirish mezonlarini ishlab chiqish, audit rejasini risk darajasiga moslashtirish, ishchi hujjatlarni tekshirish tartibini kuchaytirish, auditorlik dalillarini baholash bo'yicha ichki mezonlarni belgilash, topshiriq guruhi faoliyati ustidan nazoratni aniq taqsimlash va yakuniy auditorlik xulosasi sifatini ichki monitoringdan o'tkazish zarur. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan birga, auditorlik tashkilotlari uchun amaliy takliflar ishlab chiqishga ham imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirishda asosiy e'tibor audit jarayonining yakuniy bosqichiga emas, balki butun audit topshirig'i davomida yuzaga keladigan risklarni oldindan aniqlash, baholash va boshqarishga qaratilishi zarur. Amaliyotda ichki sifat nazorati ko'pincha auditorlik xulosasi berilishidan oldingi tekshiruv, ishchi hujjatlarni ko'zdan kechirish yoki topshiriq rahbari tomonidan umumiy nazorat qilish bilan cheklanadi. Biroq bunday yondashuv audit sifati uchun yetarli emas, chunki xatoliklar va sifat pasayishiga olib keluvchi omillar ko'pincha auditning dastlabki bosqichlarida, ya'ni mijozni qabul qilish, shartnoma tuzish, audit rejasini ishlab chiqish va muhimlik darajasini belgilash jarayonida yuzaga keladi.

Riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, auditorlik tashkilotlarining ichki sifat nazorati standartlari mijoz riskini, topshiriq riskini, auditorlik dalillari riskini, mustaqillik riskini va yakuniy xulosa riskini alohida baholashga xizmat qilishi lozim. Riskka asoslangan audit yondashuvi audit resurslarini to'g'ri taqsimlash, yuqori xavf mavjud bo'lgan sohalarga ko'proq e'tibor qaratish va audit sifatini oshirish imkonini beradi [9]. Shu sababli auditorlik tashkilotlarida barcha mijozlarga bir xil umumiy tartibda yondashish o'rniga, ularning faoliyat turi, moliyaviy hisobotlari murakkabligi, ichki nazorat tizimi holati va oldingi audit natijalariga qarab farqlangan ichki nazorat tartiblarini qo'llash maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval. Ichki sifat nazoratini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish yo'nalishlari

Audit bosqichi	Asosiy risklar	Taklif etiladigan chora	Natija
Mijozni qabul qilish	Ishonchsiz yoki yuqori riskli mijoz	Mijoz riskini baholash varaqasini joriy etish	Xavfli mijozlar oldindan aniqlanadi
Auditni rejalashtirish	Muhim risklarning e'tibordan chetda qolishi	Audit rejasini risk darajasiga qarab tuzish	Resurslar to'g'ri taqsimlanadi
Dalillarni yig'ish	Dalillarning yetarli emasligi	Dalillarni baholash mezonlarini belgilash	Xulosa asoslangan bo'ladi



Auditorlar ishini nazorat qilish	Javobgarlikning aniq belgilanmasligi	Topshiriq guruhi vazifalarini taqsimlash	Nazorat kuchayadi
Yakuniy xulosa	Xulosa sifati past bo'lishi	Xulosa oldidan ichki sifat tekshiruvini o'tkazish	Ishonchlilik oshadi
Monitoring	Xatolarning takrorlanishi	Har bir topshiriqdan keyin sifat tahlili qilish	Standartlar muntazam takomillashadi

Ushbu jadvalda auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazoratini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari qisqa shaklda ko'rsatilgan. Jadvaldan ko'rinadiki, sifat nazorati faqat auditorlik xulosasi tayyorlash bosqichida emas, balki mijozni qabul qilishdan boshlab monitoring jarayonigacha davom etishi kerak. Riskka yo'naltirilgan yondashuv har bir bosqichda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash va ularga mos nazorat choralarini belgilash imkonini beradi. Bunday yondashuv auditorlik xulosalarining ishonchligini oshirishga, audit jarayonidagi xatoliklarni kamaytirishga va auditorlik tashkilotining ichki standartlarini amaliy jihatdan samarali qilishga xizmat qiladi.

Tahlil natijasida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish uchun auditorlik tashkilotlarida uch darajali nazorat modelini joriy etish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Birinchi daraja — audit topshirig'i doirasidagi joriy nazorat bo'lib, bunda topshiriq guruhi rahbari auditorlar ishini muntazam ko'rib boradi. Ikkinchi daraja — yakuniy xulosa oldidan ichki sifat tekshiruvi bo'lib, bunda ishchi hujjatlar, auditorlik dalillari, muhimlik darajasi va xulosa loyihasi mustaqil tarzda baholanadi. Uchinchi daraja — topshiriq yakunidan keyingi monitoring bo'lib, bunda aniqlangan xatolar, kamchiliklar va takrorlanishi mumkin bo'lgan muammolar umumlashtiriladi. Sifat menejmentining riskka asoslangan modeli audit tashkilotidan sifat maqsadlarini belgilash, sifat risklarini aniqlash va ularga mos javob choralarini ishlab chiqishni talab qiladi [10].

Natijalar shuni ko'rsatadiki, auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar muhim hisoblanadi: mijozni qabul qilish va davom ettirish bo'yicha risk baholash mezonlarini ishlab chiqish; har bir audit topshirig'i uchun risk darajasini aniqlash; yuqori riskli mijozlar bo'yicha qo'shimcha nazorat tartiblarini belgilash; ishchi hujjatlar sifatini tekshirishning yagona ichki tartibini ishlab chiqish; auditorlik dalillarining yetariligi va ishonchligini baholash mezonlarini aniqlash; yakuniy auditorlik xulosasini berishdan oldin majburiy ichki sifat tekshiruvini joriy etish; monitoring natijalariga ko'ra ichki standartlarni muntazam yangilab borish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlari riskka yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich va doimiy monitoringga asoslangan tizim sifatida shakllantirilishi kerakligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik xulosalarining ishonchligini kuchaytirish, mijozlar bilan ishlashda ehtimoliy xavflarni kamaytirish va auditorlik tashkilotlarining professional javobgarligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish audit xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining ishonchligini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Auditorlik faoliyatida mijozni qabul qilish, auditni rejalashtirish, risklarni baholash, auditorlik dalillarini yig'ish, ishchi hujjatlarni rasmiylashtirish va yakuniy xulosa tayyorlash bosqichlari o'zaro uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu sababli ichki sifat nazorati faqat audit yakunida xatolarni aniqlashga qaratilgan nazorat shakli bo'lib qolmasdan, balki audit jarayonining barcha bosqichlarida risklarni oldindan aniqlash, baholash va kamaytirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida tashkil etilishi zarur.

Tahlil davomida auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarining rasmiy xarakterda qolib ketishi, risk indikatorlarining yetarli darajada ishlab chiqilmagani, topshiriq guruhi a'zolari o'rtasida javobgarlikning aniq taqsimlanmasligi, ishchi hujjatlar sifati ustidan monitoringning yetarli emasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, yuqori riskli mijozlar bilan ishlashda mijozning moliyaviy holati, ichki nazorat tizimi, oldingi audit natijalari va hisob siyosatidagi murakkabliklar alohida baholanmasa, auditorlik xulosasining asoslanganlik darajasi pasayishi mumkin. Demak, auditorlik tashkilotlari ichki sifat nazorati standartlarini har bir audit topshirig'i risk darajasiga mos ravishda qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati standartlarini takomillashtirish uchun mijozni qabul qilish va davom ettirish bo'yicha risk baholash varaqalarini joriy etish, audit rejasini risk darajasiga qarab tuzish, auditorlik dalillarini baholash mezonlarini ishlab chiqish, ishchi hujjatlarni bosqichma-bosqich tekshirish tartibini kuchaytirish hamda yakuniy xulosasi berilishidan oldin majburiy ichki sifat tekshiruvini



tashkil etish zarur. Shuningdek, auditorlik tashkilotlarida monitoring natijalari asosida ichki standartlarni muntazam yangilab borish, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro sifat menejmenti talablariga mos ichki nazorat mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, ichki sifat nazorati standartlarini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish auditorlik xizmatlarining shaffofligi, xolisligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv auditorlik tashkilotlarida sifat nazoratini rasmiy tartibdan amaliy boshqaruv vositasiga aylantiradi, audit jarayonidagi xatoliklar ehtimolini kamaytiradi hamda moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining auditorlik xulosalariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RB-677-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5307886?ONDATE=12.02.2025>
2. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Quality Management 1: Quality Management for Firms that Perform Audits or Reviews of Financial Statements, or Other Assurance or Related Services Engagements. — New York: IAASB, 2020. — URL: [IAASB Official Website](https://iaasb.org/)
3. O. E. Lubenchenko, S. V. Shulha, M. D. Korinko. New Standards of Quality Management in Audit. The Risk-Based Approach // Statistics of Ukraine. — 2022. — № 1. — P. 117–125. — DOI: 10.31767/su.1(96)2022.01.11.
4. L. Lapițkaia. Firm's Risk Assessment Process as a Component of the Quality Management System of an Auditing Firm // Strategii și politici de management în economia contemporană: Conferința Științifică Internațională, 24–25 martie 2023. — Chișinău: SEP ASEM, 2023. — P. 114–118.
5. N. N. K. Dung. Factors Affecting Risk-Based Audit and Quality Audit // Emerging Science Journal. — 2024. — Vol. 8, № 3. — P. 957–971. — DOI: 10.28991/ESJ-2024-08-03-010.
6. E. D. Kartika, A. Bahari, E. Luthan. Improving Audit Quality with Risk-Based Approach and Quality of Independent Audit Using the Structure Equation Modeling Evidence West Sumatra // International Journal of Industrial Management. — 2025. — Vol. 19, № 3. — P. 129–146. — DOI: 10.15282/ijim.19.3.2025.13222.
7. J. W. Creswell, J. D. Creswell. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. — 6th ed. — Thousand Oaks: SAGE Publications, 2023.
8. R. Hayes, P. Wallage, P. Eimers. Principles of International Auditing and Assurance. — 4th ed. — Amsterdam: Amsterdam University Press, 2021.
9. T. T. Le, T. M. A. Nguyen, T. P. Nguyen. Risk-based approach and quality of independent audit using structure equation modeling: Evidence from Vietnam // Journal of Asian Finance, Economics and Business. — 2022. — Vol. 9, № 2. — P. 359–368.
10. M. L. Murphy. How to implement the risk-based quality management standards // Journal of Accountancy. — 2023. — October 1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
